



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 2-son

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

5 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**

Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishning ayrim nazariy-huquqiy masalalari

14 **AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**

Afini demokratiyasining evolyutsiyasi va ta'siri: tarixiy-qiyosiy yondashuv

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

26 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI**

O'zbekistonda soliq tekshiruvi vazifalari va prinsiplari hamda qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

39 **MELIYEV XUDOYOR XURRAMOVICH**

Yuridik shaxslarning jinoiy va ma'muriy javobgarligi

45 **SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisining vafot etishi munosabati bilan vujudga keladigan fuqarolik (korporativ) huquqiy oqibatlar

56 **MAMANAZAROV SARDOR SHUHRATOVICH**

Big Data sohasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlari: muammolar va yechimlar

67 **AKRAMOV AKMALJON ANVARJON O'G'LI**

O'zbekistonda raqamli meros va uning huquqiy muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 85 ХАЛМУМИНОВ ЖУМАНАЗАР
ТАШТЕМИРОВИЧ**
Современное состояние энергетического
законодательства Республики Узбекистан и
правовые вопросы его совершенствования

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 89 КОМИЛЖОНОВ САРВАР ШУХРАТ УГЛИ**
Правовой статус и полномочия участников и
субъектов доследственной проверки

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 102 GULYAMOV SAID SAIDAXROROVICH,
ABDIXAKIMOV ISLOMBEK BAHODIR O'G'LI**
Kvant tahdidi: kvant hisoblashning xalqaro
kiberxavfsizlikka ta'sirini va yangi huquqiy
bazalarga shoshilinch ehtiyojni o'rganish
- 113 ОКЮЛОВ ОМОНБОЙ,
КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ МАМИРОВНА**
Уникальный научный консорциум
учёных, юристов, цивилистов

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.2./ZGID2845>
UDC: 347.1:004.6(045)(575.1)

BIG DATA SOHASIDA SUN'IY INTELEKTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI: MUAMMOLAR HAMDA YECHIMLAR

Mamanazarov Sardor Shuhratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kadrlar bo'limi boshlig'i
ORCID: 0009-0004-5855-6498
e-mail: sardormamanazarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Big Data sohasida ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida sun'iy intellektning (SI) huquq hamda majburiyatlarini tartibga solishdagi muammolar, potensial yechimlarni muhokama qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot kompleks metodologiyani qo'llagan holda Big Data sohasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlarini tartibga solishning huquqiy hamda axloqiy jihatlarini o'rganadi. Maqolada SI ni qo'llashda javobgarlik, shaffoflik, kamsitmaslik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy, axloqiy jihatlarini ko'rib chiqiladi. Mavjud huquqiy asoslar o'rganiladi va ularni takomillashtirish bo'yicha zarur choralar taklif etiladi, jumladan, maxsus qonunchilikni ishlab chiqish, mustaqil audit mexanizmlarini yaratish, shaffoflik va hisobdorlikka oid talablarni belgilash, shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabilar qayd etiladi. SI ni tartibga solishda shaffoflik va hisobdorlik prinsiplarining rolga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, tartibga solishning huquqiy va axloqiy jihatlarini yanada rivojlantirish uchun takliflar beriladi. Xususan, SI tizimlarini ishlab chiquvchilar, operatorlarining burch va mas'uliyatlarini belgilovchi maxsus standartlarni joriy etish hamda SI tizimlarini mustaqil ekspertizadan o'tkazish va audit qilish mexanizmlarini yaratish shular jumlasidan. Tadqiqotda raqamli davrda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydigan samarali, muvozanatli tartibga solish tizimini yaratish zarurligi to'g'risida xulosalar qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, Big Data, huquqiy tartibga solish, axloq, javobgarlik, shaffoflik, kamsitmaslik, shaxsiy ma'lumotlar.

ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБЛАСТИ BIG DATA: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Маманазаров Сардор Шухратович,
начальник отдела кадров
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Данная статья посвящена анализу проблем и потенциальных решений в области регулирования прав и обязанностей искусственного интеллекта в контексте обработки и анализа больших данных (Big Data). Рассматриваются правовые и этические аспекты ответственности, прозрачности, недискриминации и защиты персональных данных при применении искусственного интеллекта. Исследуются существующие правовые рамки и предлагаются меры по их совершенствованию, включая разработку специального законодательства, создание механизмов независимого аудита, установление требований к прозрачности и подотчётности, а также развитие международного сотрудничества.

Особое внимание уделяется роли принципов прозрачности и отчётности в регулировании искусственного интеллекта. Анализируются особенности регулирования искусственного интеллекта и Big Data в Узбекистане. Сделан вывод о необходимости создания эффективной и сбалансированной системы регулирования, обеспечивающей развитие инновационных технологий и защиту прав человека в цифровую эпоху.

Ключевые слова: искусственный интеллект, Big Data, правовое регулирование, этика, ответственность, прозрачность, недискриминация, персональные данные.

RIGHTS AND OBLIGATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE FIELD OF BIG DATA: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Mamanazarov Sardor Shukhratovich,
Tashkent State University of Law,
Head of Human Resources Department

Abstract. This article is devoted to analyzing problems and potential solutions in the regulation of the rights and responsibilities of artificial intelligence (AI) in the context of the processing and analysis of Big Data. We explore the legal and ethical aspects of accountability, transparency, non-discrimination, and protection of personal data in the use of AI. The research examines existing legal frameworks, and we propose measures that have the potential to improve them significantly, including the development of specific legislation, the establishment of independent audit mechanisms, the establishment of transparency and accountability requirements, and the promotion of international cooperation. Particular attention is paid to the role of transparency and accountability principles in AI regulation. The features of regulation of AI and Big Data in Uzbekistan are analyzed. It is concluded that with these promising measures, it is necessary to create an effective and balanced regulatory system that ensures the development of innovative technologies and the protection of human rights in the digital age.

Keywords: artificial intelligence, big data, legal regulation, ethics, responsibility, transparency, non-discrimination, personal data.

Kirish

Sun'iy intellekt (SI) Big Data sohasiga jadal joriy etish va rivojlantirish turli sohalarda texnologik taraqqiyot hamda innovatsiyalarga ko'maklashib, ulkan hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda keng imkoniyatlar ochadi. Biroq Big Data sohasida SI ni qo'llash bir qator jiddiy huquqiy va axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa Big Data sohasida SI ni sinchkovlik bilan o'rganish va samarali tartibga solishni talab qiladi [1].

Ushbu mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, Big Data bilan ishlashda SI dan tobora kengroq foydalanish shaxslar va jamiyat uchun salbiy oqibatlarga olib borishi mumkin bo'lgan hollarda SI tomonidan qabul qilinadigan harakatlar va qarorlar uchun javobgarlik to'g'risidagi savollarni keltirib chiqaradi. Ik-

kinchidan, Big Data bilan ishlashda SI ni qo'llash maxfiylik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, potensial kamsitish va algoritmlardagi tarfakashlik bilan bog'liq jiddiy axloqiy masalalarni ko'taradi [2]. Uchinchidan, Big Data sohasida shaffoflik, hisobdorlik hamda inson huquqlariga rioya qilishni ta'minlash uchun SI ning huquq va majburiyatlarini tartibga soladigan huquqiy asoslarni ishlab chiqish zaruriyati mavjud [3].

Ushbu maqolaning maqsadi Big Data sohasida SI ning huquq va majburiyatlarini tartibga solishdagi muammolar va potensial yechimlarni kompleks tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada quyidagi asosiy masalalar ko'rib chiqiladi:

1. Big Datani qayta ishlash, tahlil qilishda SI ning ishtiroki bilan bog'liq asosiy huquqiy va axloqiy muammolarni aniqlash;

2. SI yordamida yaratilgan Big Datadan foydalanishning huquqiy oqibatlarini va axloqiy jihatlarini muhokama qilish;

3. Big Data sohasida SI qo'llaydigan subyektlarning javobgarligi va majburiyatlarini tartibga soladigan mavjud huquqiy asoslarni o'rganish;

4. Big Data bilan ishlashda SIDan foydalanishga oid huquqiy muammolarni yumshatish va huquqlarni ta'minlash uchun potensial yechimlarni baholash;

5. Big Data sohasida SIning huquq va majburiyatlarini tartibga solishda shaffoflik va hisobdorlik prinsiplarining rolini tahlil qilish;

6. O'zbekiston sharoitida Big Data sohasida SIning huquq va majburiyatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish.

Ko'rsatib o'tilgan masalalarni hal qilish Big Data sohasida SIning qo'llash bilan bog'liq murakkab muammolarni to'liq tushunish, texnologik rivojlanish hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni hisobga olgan holda tartibga solishning samarali yondashuvlarni taklif etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari Big Data doirasida SIDan foydalanish sohasiga oid siyosatni shakllantirish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Material va metodlar

Maqolada qo'yilgan vazifalarni hal qilish va tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi usullarni o'z ichiga olgan kompleks metodologiya qo'llanadi:

1. Huquqiy, texnologik va axloqiy omillarni hisobga olgan holda Big Data sohasida SIning huquq va majburiyatlarini tartibga solish muammosini ko'p qirrali va o'zaro bog'liq deb qarash imkonini beruvchi tizimli tahlil. Ushbu usul tadqiqot sohasidagi asosiy elementlar va o'zaro aloqalarni aniqlashga yordam beradi [4].

2. Turli mamlakatlarning SIDan foydalanish va Big Datani tartibga soladigan qonun-

chiligi va huquqiy normalarini o'rganishga qaratilgan qiyosiy-huquqiy tahlil. Bu sohani tartibga solish uchun umumiy tendensiyalar, eng yaxshi amaliyotlar va potensial yechimlarni aniqlash imkonini beradi [5].

3. Big Data bilan ishlashda SIDan foydalanishga oid huquqiy muammolarni yumshatish va ishtirokchilarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha potensial yechimlarni ishlab chiqish va baholash uchun modellash-tirish usuli. Modellash-tirish tartibga solishga turli yondashuvlarni qo'llashning mumkin bo'lgan ssenariy va oqibatlarini tahlil qilish imkonini beradi [6].

4. Big Data kontekstida SI ishlatilishi-ning aniq misollarini hamda buning natijasi-da yuzaga keladigan huquqiy va axloqiy muammolarni tahlil qilishni nazarda tutadigan keys-stadi usuli. Haqiqiy keyslarni o'rganish tadqiqot sohasining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tushunish va tartibga solishning amaliy jihatlarini aniqlash imkonini beradi [7].

Big Datani qayta ishlash va tahlil qilish uchun qo'llanadigan sun'iy intellekt tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tadqiqot predmeti Big Data sohasida SIning huquq va majburiyatlarini tartibga solishning huquqiy hamda axloqiy jihatlarini, shu jumladan, javobgarlik, shaffoflik, kamsitmaslik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari sanaladi. Sun'iy intellekt va Big Datani huquqiy tartibga solish sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari, shuningdek, ushbu sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro hujjatlar nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotning empirik bazasini Big Data bilan ishlashda SIDan foydalanish misollari va ularga aloqador huquqiy keyslar tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari

Big Data doirasida sun'iy intellekt ishtiroki natijasida kelib chiqadigan huquqiy va axloqiy muammolar

Zamonaviy dunyoda Big Data sohasida SI ni ishlab chiqish va qo'llash bir vaqtning o'zida muammolar hamda imkoniyatlarni taqdim

etadi. Sun'iy intellekt Big Dataga ishlov berish va tahlil qilish bo'yicha ko'plab jarayonlarning ajralmas qismiga aylandi, biroq uning Big Datadagi ishtiroki bilan bog'liq qator huquqiy muammolar ham mavjud.

Ushbu muammolardan biri ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan harakatlar va qarorlar uchun javobgarlik masalasidir. Avtonom tabiati tufayli sun'iy intellekt algoritmlar va ma'lumotlardan o'rganish asosida murakkab qarorlar qabul qilishi mumkin. Biroq noto'g'ri qarorlar yoki muammolar yuzaga kelgan taqdirda, sun'iy intellektning harakatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar yoki xatolar uchun kim javobgar bo'ladi, degan haqli savol tug'iladi. Yuridik javobgarlik va dalillar prinsiplari SI va Big Data doirasida muhim jihatlarga aylanadi [1].

Bundan tashqari, yana bir muammo Big Datada sun'iy intellekt ishtirokining axloqiy jihatlari masalasidir. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni, jumladan, shaxsiy va konfidensial ma'lumotlarni to'plashi, tahlil qilishi va ulardan foydalanishi mumkin. SI sog'liqni saqlash, moliya yoki huquqni muhofaza qilish kabi sohalarda qo'llanganida maxfiylik, shaxsiy hayot va ma'lumotlardan adolatli foydalanish kabi savollar paydo bo'ladi.

Big Data sohasida sun'iy intellektning ishtiroki bilan bog'liq muammoga misol sifatida kredit berish bo'yicha qaror qabul qilishning avtomatlashtirilgan algoritmini keltirish o'rinli. Qarz oluvchilar haqidagi Big Datani tahlil qilish jarayonida sun'iy intellekt mustaqil ravishda kredit berish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Biroq agar algoritmda qarz oluvchilarning ayrim guruhlariga nisbatan tizim bilan bog'liq muammolar yoki kamsitish qo'llansa, bu huquqlarning buzilishiga olib kelishi va moliyaviy xizmatlardan foydalanishda tengsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

SI tomonidan yaratilgan Big Dataning axloqiy tomonlari va huquqiy oqibatlari

SI yordamida Big Datani yaratish va ulardan foydalanish zamonaviy raqamli muhitimizga katta hissa qo'shadi. Biroq bu jarayon e'tibor va tartibga solishni talab qiladigan axloqiy hamda huquqiy oqibatlarga olib keladi.

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan Big Data bilan bog'liq axloqiy jihatlardan biri shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasi masalasidir. Ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlov berish uchun sun'iy intellektidan foydalanganda qanday ma'lumotlar to'plangani, ulardan qanday foydalanilganligi va bu ma'lumotlarga kimlar kirishi mumkinligi haqida savollar tug'iladi. Subyektlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishda shaffoflik, rozilik, anonimlik prinsiplariga rioya etilishini ta'minlash zarur [10].

Yana bir axloqiy jihat – sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan Big Dataga ishlov berishda kamsitish va tarafdashlik bilan bog'liq. Agar sun'iy intellekt algoritmlari noto'g'ri yoki noxolis ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa, u holda ular tizimli tengsizlik, kamsitish yoki muayyan guruhlarining huquq va erkinliklarini buzish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tenglik va adolatni ta'minlash uchun bunday noto'g'ri qarashlarni bartaraf etadigan yoki minimallashtiradigan algoritmlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish muhimdir [11].

Axloqiy jihatlardan tashqari, sun'iy intellekt yordamida Big Datani yaratish huquqiy oqibatlarga oid savollarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, qaror qabul qilishni avtomatlashtirish uchun sun'iy intellektidan foydalanilganda, ushbu qarorlarning shaffofligi va tushuntirib berilishi masalalari paydo bo'ladi. Bunday qarorlar bevosita ta'sir qilgan shaxslar SI qay tariqa va qanday mezonlar bo'yicha qaror qabul qilishini bilish, kerak bo'lganda shikoyat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shaffoflikni ta'minlovchi va ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qiluvchi tegishli huquqiy mexanizmlar zarur hisoblanadi [12].

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan Big Data axloqiy jihatlar va huquqiy oqibatlari bo'yicha tadqiqotlar hamda muhokamalar turli sohalarda, jumladan, ilmiy hamjamiyat, davlat tashkilotlari va jamoat guruhlarida olib borilmoqda. Big Datadan axloqiy va adolatli foydalanishni ta'minlash uchun kamsitmaslik, shaffoflik, javobgarlik va ma'lumotlar subyektlarining roziligi prinsiplari kabi turli yechimlar, prinsiplar taklif qilinmoqda [13].

Sun'iy intellektidan foydalangan holda Big Data bilan ishlashda javobgarlik va majburiyatlarni tartibga soluvchi huquq bazasi

Zamonaviy dunyoda SIDan foydalangan holda Big Datani qo'llash jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning javobgarligi va majburiyatlari bilan bog'liq yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Big Datani qo'llashda majburiyat va javobgarlikni tartibga solish sun'iy intellekt xususiyatlari, uning jamiyatga hamda ma'lumotlar subyektlarining huquqlariga ta'sirini hisobga oladigan tegishli huquqiy bazani ishlab chiqishni talab qiladi.

Amaliyot va qonunchilik bilan mustahkamlangan nazariyalardan biri SI algoritmlarining shaffofligi hamda tushunarligi konsepsiyalari bilan bog'liq. Ko'pgina mamlakatlar, huquqiy tizimlarda sun'iy intellekt hamda Big Datadan foydalanadigan tashkilotlardan tizim tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun tushuntirishlar, mantiqiy asoslarni taqdim etishni talab qiluvchi qoidalar ishlab chiqilmoqda va qabul qilinmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglament (GDPR) ma'lumotlar subyektlarining qabul qilingan algoritmik qarorlarga tushuntirish olish huquqini belgilaydi [14]. Bu esa ma'lumotlar subyektlari tomonidan shaffoflik va nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Qonunchilik asosida mustahkamlangan yana bir nazariya SI yordamida Big Datani qo'llash natijasida yuzaga keladigan xatolar va muammolar uchun javobgarlik konsepsiyasi bilan bog'liq. Ma'lumotlarni qayta ish-

laydigan va tahlil qiladigan tashkilotlar SI algoritmlarida ishlatiladigan ma'lumotlarning to'g'riligi, sifati uchun javobgardir. Turli mamlakatlarning, shu jumladan, AQSh va Yevropa Ittifoqining qonunchiligida SI algoritmlaridagi xatolar yoki tarafkashlik natijasida salbiy oqibatlar yuzaga kelgan taqdirda shikoyat qilish va kompensatsiya olish imkoniyati to'g'risidagi qoidalar belgilangan [15]. Bu ma'lumotlar subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi, tashkilotlarni ma'lumotlar sifatini ta'minlashga hamda SI algoritmlarini yaxshilashga undaydi.

SIDan foydalangan holda Big Datani qo'llashni tartibga soluvchi huquq bazasida kamsitmaslik prinsipi ham muhimdir. Milliy hamda xalqaro darajadagi qonunchilik va amaliyot ma'lumotlar, algoritmik qarorlar asosida kamsitishning oldini olishga intiladi. Masalan, Qo'shma Shtatlarda Fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonun mavjud bo'lib, u irqi, jinsi, yoshi va boshqa xususiyatlariga ko'ra kamsitishni taqiqlaydi [16]. Bu ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini kamsitish va buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan Big Data va SIDan noto'g'ri foydalanishdan himoya qiladi.

Bundan tashqari, huquq bazasi Big Data va SI tomonidan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish masalasini tartibga soladi. Turli mamlakatlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunlar mavjud bo'lib, ular bunday ma'lumotlarni to'plash, saqlash, ulardan foydalanish shartlari va cheklovlari belgilaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqidagi ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha reglament (GDPR) ma'lumotlar subyektlarining roziligi talabini belgilaydi hamda shaxsiy ma'lumotlarni o'chirish va tuzatish huquqini kafolatlaydi [14]. Bu maxfiylikni himoya qilishni va subyektlarning shaxsiy ma'lumotlarini nazorat qilishni ta'minlaydi.

Amaliyot va qonunchilikdan olingan misollar bu nazariya hamda prinsiplarni tasdiqlashi mumkin. Masalan, AQShda "Facebook" foydalanuvchilarning irqiga qarab

turar joyi va ishi haqida turli ma'lumotlarni taqdim etuvchi algoritmlardan foydalanganligi sababli kamsitmaslik prinsipini buzganlikda ayblangan [17, 18]. Ushbu holat ma'lumotlar subyektlarining huquq va manfaatlariga kamsitish hamda nomaqbul ta'sir ko'rsatish nuqtayi nazaridan Big Data va SIDan foydalanishni tartibga solish muhimligini ifodalaydi.

Big Data doirasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlarini tartibga solishda shaffoflik va hisobdorlik

Big Data doirasida sun'iy intellektning huquq hamda majburiyatlarini tartibga solishda shaffoflik va hisobdorlik muhim rol o'ynaydi. Bu prinsiplar qarorlar qabul qilishda ochiqlik va tushunarlikni hamda ularning natijalari uchun javobgarlikni ta'minlaydi.

Shaffoflik sun'iy intellekt harakatlari-ning ravshanligi va tushuntirilishini nazarda tutadi. Sun'iy intellekt tizimlari qaror qabul qilganda, bu qarorlar tushunarli bo'lishi va tushuntira olinishi muhimdir. Shaffoflikning yo'qligi huquqiy va axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki bu qabul qilingan qarorlarni nazorat qilish va tushunishni qiyinlashtiradi, shuningdek, kamsituvchi yoki adolatsiz, asossiz qarorlar qabul qilish ehtimolini oshiradi [22]. Bunga misol qilib ishga qabul qilish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishni olish mumkin, bunda noshaffof algoritmlar noxolis va adolatsiz qarorlarga olib boradi.

Hisobdorlik, o'z navbatida, sun'iy intellektning harakatlarini kuzatish va qayd etishni, shuningdek, qabul qilingan qarorlar va ularning oqibatlari haqida hisobot berish majburiyatini o'z ichiga oladi. Hisobdorlik qabul qilinadigan qarorlar bo'yicha kuzatuv va javobgarlikni ta'minlaydi va sun'iy intellekt tizimlariga nisbatan shaffoflik va ishonchni oshiradi [23]. Bunga qarorlar xolislik va kamsitishga yo'l qo'ymaydigan mezonlarga asoslanganligini tekshirish uchun kredit skoring jarayonida mashinalashgan o'rganish algoritmlarini qo'llash to'g'risida hisobot berish talabi misol bo'la oladi.

Big Data doirasida sun'iy intellektni shaffoflik va hisobdorlikka tegishli normativ-huquqiy talablarni joriy etish orqali tartibga solish imkoni bor. Misol uchun, qonunchilik sun'iy intellektni ishlab chiquvchilar va provayderlardan qabul qilingan qarorlar bo'yicha tushuntirishlarni hamda sun'iy intellekt tizimlarini qo'llash bo'yicha hisobotlarni taqdim etishlarini talab qilishi mumkin [24]. Bunday talablarni milliy yoki xalqaro darajadagi huquqiy hujjatlar yoki standartlar bilan belgila bo'ladi.

Sun'iy intellekt va Big Datani o'zini o'zi tartibga solishi orqali ham shaffoflik, hisobdorlik ta'minlanishi mumkin. Sun'iy intellekt tashkilotlari shaffoflik va hisobdorlik prinsiplarini o'z ichiga olgan axloq kodeksini ishlab chiqishi, qabul qilishi mumkin [25]. Bu sun'iy intellekt uchun yuqori standartlarni belgilashga, shuningdek, undan foydalanishga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

Shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarga misol sifatida muhim qarorlarni qabul qilishda, masalan, kreditlar berish yoki risklarni boshorat qilishda sun'iy intellektning algoritmik qarorlari uchun asoslarni taqdim etish talabini keltirish mumkin. Bu manfaatdor tomonlar va nazorat qiluvchi organlarga qabul qilinayotgan qarorlarni tahlil qilish va tushunish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar yoki noqonuniy xatti-harakatlarini aniqlash imkonini beradi [26, 27].

Big Datada sun'iy intellektdan foydalanishdagi huquqiy muammolarni yumshatish va huquqni ta'minlash

Big Data sohasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlarini tartibga solish zamonaviy huquqiy tartibga solishning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Texnologiyaning rivojlanishi, Big Dataga ishlov berish va tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanishning kengayishi bilan tegishli yechimlarni talab qiladigan yangi huquqiy muammo va masalalar paydo bo'ldi.

Asosiy muammolardan biri sun'iy intellektni qo'llagan holda qabul qilingan harakatlari va qarorlar uchun javobgarlik masalasidir. Ma'lumotlarni mustaqil ravishda qayta ishlash va qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan sun'iy intellekt salbiy oqibatlar uchun javobgarlik bilan bog'liq huquqiy masalalar yuzaga keladigan vaziyatlarni yaratishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt bilan jihozlangan avtonom avtotransport vositalarida avariya yoki zarar sodir bo'lganda kim javobgar bo'ladi degan, savol tug'iladi [19]. Ushbu muammoni hal qilish bunday tizimlarni ishlab chiquvchilar, operatorlar va egalarining javobgarlik darajasini belgilaydigan tegishli huquqiy normalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Yana bir muammo – sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlarning shaffofligi va tushuntirilishi. Ko'pincha Big Data va SI da ishlatiladigan mashinalashgan o'rganish (machine learning) algoritmlari murakkab hamda odamlar uchun har doim ham tushunarli emas. Bu ma'lumotlar subyektlariga qabul qilingan qarorlarni tushuntirish va ularni asoslashda qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, moliya sektorida kreditlar berish bo'yicha qarorlar qabul qilishda sun'iy intellektdan foydalanish qabul qilingan qarorlarning shaffofligi va xolisligi haqida savollar tug'dirishi mumkin [20]. Bu muammoni hal etish uchun qabul qilinayotgan qarorlarning tushuntirilishi va shaffofligini hamda qonunchilik prinsiplariga muvofiqligini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Shuningdek, muhim muammolardan biri Big Datada sun'iy intellektdan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishdir. Big Datani qayta ishlash va mashinalashgan o'rganish (machine learning) algoritmlarini qo'llash katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarga kirishni talab qiladi. Shu bilan birga, maxfiylik va ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini hurmat qilish prinsiplariga rioya qilishni ta'minlash muhimdir. Masalan, tibbiy diagnostikada sun'iy intellektdan foyda-

langanda bemorning tibbiy ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash kerak [21]. Ushbu muammoni hal qilish shaxsiy ma'lumotlarni samarali himoya qilishni va maxfiylik prinsiplariga rioya qilishni ta'minlaydigan tegishli huquqiy me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbekistonda Big Data doirasida sun'iy intellekt huquq va majburiyatlarini tartibga solish

O'zbekistonda Big Data doirasida sun'iy intellektning (SI) huquq va majburiyatlarini tartibga solish O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi hamda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu qonunlar sun'iy intellektning huquqiy maqomini ifodalaydi va Big Data sohasidagi sun'iy intellektning huquq hamda majburiyatlarini belgilaydi.

"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun shaxsiy ma'lumotlarni, shu jumladan, Big Data yordamida to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash qoidalari va prinsiplarini belgilaydi. Qonunda shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, foydalanish va o'tkazishga, shu jumladan, sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga qo'yiladigan talablar aks etgan. Qonun shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini, himoyasini va xavfsizligini ta'minlaydi, shuningdek, subyektlarning o'z ma'lumotlarini nazorat qilish va ulardan foydalanish huquqlarini belgilaydi.

"Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun axborot tizimlari va ma'lumotlarni kiberjinoiyatlar va ruqsatsiz kirish (foydalanish) bilan bog'liq tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan. U Big Data sohasida qo'llanadigan axborot tizimlarini, jumladan, sun'iy intellektga asoslangan tizimlarni himoya qilishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Qonunda tashkilot va kompaniyalarga axborot tizimlari xavfsizligini, shu jumladan, ma'lumotlarga ruqsatsiz kirish va o'g'rilikdan himoya qilishni ta'minlash bo'yicha majburiyatlar qayd etilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Big Data doirasida sun'iy intellekt ishtiroki natijasida kelib chiqadigan huquqiy va axloqiy muammolar tahlili

Big Data doirasida sun'iy intellekt ishtiroki natijasida kelib chiqadigan muammolarni hal qilish uchun tegishli huquqiy va axloqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, amalda hamda qo'llash zarur. Sun'iy intellekt algoritmlarini tushunish va ularning harakatlari ustidan nazoratni ta'minlash uchun shaffoflik, tushuntirish va hisobdorlik prinsiplari belgilanishi kerak. Shuningdek, ma'lumotlar subyektlarining huquqlari adolatli va qonuniy himoya qilinishini ta'minlash maqsadida sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlarni ko'rib chiqish va shikoyat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur [8, 9]. Bu barcha ma'lumotlar subyektlarining manfaatlari va huquqlarini hisobga oladi, ma'lumotlarga ishlov berish hamda ulardan foydalanishda adolat va shaffoflikni ta'minlaydi. Demak, Big Data sohasida SIdan foydalanish uchun axloq qoidalariga mos javobgarlikni ta'minlaydigan amaliyotni yo'lga qo'yish uchun axloqiy prinsiplar va tartibga soluvchi cheklovlar o'rnatilishi lozim [2].

SI tomonidan yaratilgan Big Data axloqiy tomonlari va huquqiy oqibatlari tahlili

Innovatsiyalar hamda ma'lumotlar subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni topish uchun sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan Big Dataning axloqiy jihatlari va huquqiy oqibatlari muhokama qilish, potensial yechimlar berish zarur. Big Datadan axloqiy foydalanishni va ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydigan, jamoatchilikning Big Data texnologiyalari va sun'iy intellektga ishonchini oshirishga hissa qo'shadigan samarali huquqiy mexanizmlar, qoidalarini ishlab chiqish lozim.

Sun'iy intellektdan foydalangan holda Big Data bilan ishlashda javobgarlik va majburiyatlarni tartibga soluvchi huquq bazasi tahlili

Sun'iy intellektdan foydalangan holda Big Data bilan ishlashda javobgarlik va majburiyatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini tadqiq qilish bizga shaxsiy ma'lumotlarning shaffofligi, kamsitmaslik va himoyasini ta'minlaydigan zarur mexanizmlar hamda standartlarni o'rnatish imkonini beradi. Ushbu qonunchilik bazasi Big Data va SIdan samarali, axloqiy tamoyillar asosida foydalanishni rivojlantiradi, ma'lumot subyektlari ishonchi asoslarini belgilaydi va bu sohada innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Big Data doirasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlarini tartibga solishda shaffoflik hamda javobgarlikning huquqiy tahlili

Shaffoflik va hisobdorlik Big Data doirasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu prinsiplar javobgarlik hissi bo'lgan va tushuntirish imkonini beradigan qarorlar qabul qilishga yordam beradi, sun'iy intellekt tizimlariga ishonchni oshiradi hamda huquqiy muammolarni yumshatishga yordam beradi. Tegishli qonun talablarini qo'llash va axloq kodeksini ishlab chiqish Big Datada sun'iy intellektdan foydalanishda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash uchun samarali vosita bo'lishi mumkin.

Big Datada sun'iy intellektdan foydalanishdagi huquqiy muammolarni yumshatish va huquqni ta'minlash uchun yechimlar tahlili

Big Datada sun'iy intellektdan foydalanishdagi huquqiy muammolarni yumshatish va Big Datada sun'iy intellektdan foydalanish huquqlarini ta'minlash uchun quyidagi potensial yechimlarni berish mumkin:

1. Sun'iy intellektni ishlab chiquvchilar hamda operatorlarining burch va mas'uliyatini belgilovchi maxsus normalar va standartlarni ishlab chiqish. Ushbu qoidalar qabul qilingan qarorlar uchun shaffoflik, tushuntirish va javobgarlik talablarini belgilashi kerak.

2. Qabul qilingan qarorlarning tegishli si-fati, tushuntirilishi va axloqiyligini ta'minlash

maqsadida sun'iy intellekt tizimlarini mustaqil ekspertizadan o'tkazish va audit qilish mexanizmlarini yaratish. Bu sun'iy intellekt tizimlarining qonunchilik prinsiplari va axloqiy me'yorlarga muvofiqligini tekshirish imkonini beradi.

3. Big Data va sun'iy intellekt doirasida shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish prinsiplari va qoidalarini o'rnatish. Ushbu qoidalar shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish shartlarini, shuningdek, ushbu ma'lumotlarning maxfiyligini monitoring qilish va ta'minlash mexanizmlarini belgilashi kerak.

4. Sun'iy intellektdan foydalanishning salbiy oqibatlari uchun javobgarlik tizimini ishlab chiqish. Bu sun'iy intellektning noqonuniy yoki zararli harakatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplash va kompensatsiya mexanizmlarini yaratishni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Big Datada sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga solishning umumiy standartlari va prinsiplarini ishlab chiqish bo'yicha davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik. Bu xalqaro doirada huquqiy normalarning uyg'unlashuvi va harakatlar izchiligi ta'minlaydi.

Taqdim etilgan yechimlar huquqiy muammolarni yumshatish va Big Data doirasida sun'iy intellektdan foydalanish huquqlarini ta'minlashga yordam beradigan ehtimoliy chora-tadbirlarning bir qismidir. Ushbu yechimlar Big Data qo'llanadigan tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, milliy va xalqaro normalar va standartlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Big Datada sun'iy intellektdan foydalanishni huquqiy tartibga solish ko'plab omillar va xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladigan murakkab vazifadir. Bu turli tomonlarning manfaatlarini uyg'unlashtirish, ma'lumotlar subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, shuningdek, Big Dataning samarali ishlashi va rivojlanishini ta'minlash zarurati bilan bog'liq. Samarali huquqiy tartibga solish-

ni ishlab chiqish va qo'llash Big Data hamda sun'iy intellektni rivojlantirish uchun barqaror va ishonchli muhitni yaratish uchun muhim qadamdir.

O'zbekistonda Big Data bo'yicha sun'iy intellekt huquq va majburiyatlarini tartibga solish tahlili

O'zbekistonda Big Data sohasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlarini tartibga solish ma'lumotlardan innovatsion foydalanish hamda odamlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Shaxsiy ma'lumotlar va kiberxavfsizlikni tartibga soluvchi qonunlar Big Data sohasida xavfsizlik va ishonchlikni ta'minlashning muhim vositalari bo'lib, O'zbekistonda sun'iy intellektdan foydalanishga bo'lgan ishonchni o'stirishga xizmat qiladi.

Xulosalar

Big Data doirasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlarini tartibga solish sohasidagi muammolar va potensial yechimlar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, Big Datani qayta ishlash va tahlil qilishda SIning ishtiroki javobgarlik, shaffoflik, kamsitmaslik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq huquqiy va axloqiy masalalar majmuasini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, ushbu muammolarni samarali hal qilish uchun SIning o'ziga xos xususiyatlari va uning ma'lumotlar subyektlari huquqlariga ta'sirini hisobga oladigan maxsus huquqiy normalar hamda mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Uchinchidan, SIning huquq va majburiyatlarini tartibga solishda shaffoflik hamda hisobdorlik prinsiplari muhim rol o'ynaydi, bu esa qabul qilingan qarorlarni nazorat qilish va baholash imkonini ta'minlaydi. To'rtinchidan, turli mamlakatlarning tajribasi qonunchilik choralari va o'z-o'zini tartibga solishni birlashtirish muhimligini ko'rsatadi. Beshinchidan, O'zbekistonda Big Data doirasida SI ni tartibga solish shaxsiy ma'lumotlar va kiberxavf-

sizlik to'g'risidagi qonunlar orqali amalga oshiriladi, biroq SIning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy bazani yanada rivojlantirish talab etiladi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda SI va Big Datani tartibga solish sohasida huquqiy tizimni takomillashtirish uchun shunday tavsiyalar taklif etiladi:

1) Big Data doirasida SIDan foydalanishga jalb etilgan subyektlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan maxsus qonunchilikni ishlab chiqish;

2) SI tizimlarining huquqiy va axloqiy normalarga mosligini ta'minlash uchun mustaqil audit va nazorat mexanizmlarini yaratish;

3) fuqarolarning huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan qarorlar qabul qilish uchun

SI ni qo'llashda shaffoflik, tushuntirish va hisobdorlik talablarini belgilash;

4) shaxsiy hayot daxlsizligi va ma'lumotlar subyektlarining nazoratini ta'minlaydigan, SI va Big Data sohasida shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish;

5) SI va Big Datani tartibga solish bo'yicha yagona standartlar va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi ma'lumotlarni tahlil qilishning innovatsion texnologiyalarini rivojlantirish, shu bilan birga, raqamli davrda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlaydigan samarali hamda muvozanatli tartibga solish tizimini yaratishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Barfield W., Pagallo U. Research Handbook on the Law of Artificial Intelligence. Edward Elgar Publ., 2018, 640 p.
2. Coeckelbergh M. AI Ethics. MIT Press Publ., 2020, 256 p.
3. Ethically Aligned Design: A Vision for Prioritizing Human Well-being with Autonomous and Intelligent Systems. V. 2. *IEEE Global Initiative on Ethics of Autonomous and Intelligent Systems*, 2017, 138 p.
4. Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford University Press Publ., 2014, 272 p.
5. Comparative Analysis of National Strategies for Artificial Intelligence. Future of Life Institute Publ., 2020, 97 p.
6. Taeihagh A. Governance of artificial intelligence. *Policy and Society*, 2021, vol. 40 (2), pp. 137–157.
7. Dignum V. Responsible Artificial Intelligence: How to Develop and Use AI in a Responsible Way. Springer Publ., 2019, 127 p.
8. Doshi-Velez F., Kim B. Towards A Rigorous Science of Interpretable Machine Learning. *arXiv:1702.08608*, 2017, 13 p.
9. Selbst A.D., Powles J. Meaningful information and the right to explanation. *International Data Privacy Law*, 2017, vol. 7 (4), pp. 233–242.
10. Tene O., Polonetsky J. Big Data for All: Privacy and User Control in the Age of Analytics. *Northwestern Journal of Technology and Intellectual Property*, 2013, vol. 11 (5), pp. 239–273.
11. Barocas S., Selbst A.D. Big Data's Disparate Impact. *California Law Review*, 2016, vol. 104, pp. 671–732.
12. Goodman B., Flaxman S. European Union Regulations on Algorithmic Decision-Making and a "Right to Explanation". *AI Magazine*, 2017, vol. 38 (3), pp. 50–57.

13. Floridi L., Cows J. A Unified Framework of Five Principles for AI in Society. *Harvard Data Science Review*, 2019, vol. 1, no 1, pp. 1–13.
14. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data, and repealing Directive 95/46/EC (General Data Protection Regulation). *Official Journal of the European Union*, 2016, L. 119, pp. 1–88.
15. Algorithmic Accountability Act of 2019, H.R. 2231, 116th Cong. 2019.
16. Civil Rights Act of 1964, Pub. L. 88-352, 78 Stat. 241. 1964.
17. Angwin J., Tobin A., Varner M. Facebook (Still) Letting Housing Advertisers Exclude Users by Race. *ProPublica*, 2017, November 21.
18. Facebook's Ad Discrimination Problem, Statement of ACLU Washington Legislative Office. *American Civil Liberties Union*, 2018, September 18.
19. Schellekens M. Self-driving cars and the chilling effect of liability law. *Computer Law & Security Review*, 2015, vol. 31 (4), pp. 506–517.
20. Kaminski M.E. The Right to Explanation, Explained. *Berkeley Technology Law Journal*, 2019, vol. 34, no 1, pp. 189–218.
21. Price W.N. Artificial Intelligence in Health Care: Applications and Legal Issues. *The SciTech Lawyer*, 2017, vol. 14 (1), pp. 10–13.
22. Mittelstadt B., Allo P., Taddeo M., Wachter S., Floridi L. The ethics of algorithms: Mapping the debate. *Big Data & Society*, 2016, vol. 3 (2), pp. 1–21.
23. Bryson J., Winfield A. Standardizing Ethical Design for Artificial Intelligence and Autonomous Systems. *Computer*, 2017, vol. 50 (5), pp. 116–119.
24. Tutt A. An FDA for Algorithms. *Administrative Law Review*, 2017, vol. 69, pp. 83–123.
25. Hagendorff T. The Ethics of AI Ethics: An Evaluation of Guidelines. *Minds and Machines*, 2020, vol. 30, pp. 99–120.
26. Ebers M. Regulating AI and Robotics: Ethical and Legal Challenges. Regulating Artificial Intelligence. Eds. T.E. Synodinou, P. Jogleux, C. Markou, T. Prastitou. Springer Publ., 2020, pp. 37–98.
27. Castelluccia C., Le Métayer D. Understanding algorithmic decision-making: Opportunities and challenges. *Panel for the Future of Science and Technology, European Parliamentary Research Service*, 2019, 94 p.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 2-SON

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 23.04.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 13,5.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 50.

TDYU tipografiyasida chop etildi.